



ТЕРМИЗ АРХЕОЛОГИЯ МУЗЕЙИ



“ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИЯСИ”

илмий конференцияси

(Тарих, археология, туризм, этнография ва ижтимоий соҳаларга оид илмий, илмий-оммабоп мақолалар тўплами)

Термиз 2022

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ТУРИЗМ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ВАЗИРЛИГИ
МАДАНИЙ МЕРОС АГЕНТЛИГИ**

ТЕРМИЗ АРХЕОЛОГИЯ МУЗЕЙИ

“ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИЯСИ”

илмий конференцияси

(Тарих, археология, туризм, этнография ва ижтимоий соҳаларга оид илмий, илмий-оммабоп мақолалар тўплами)



Термиз 2022

Алламуратов Шухрат Ҳасан ўғли ТАРИХШУНОСЛИК ФАНИ ВА УНИНГ ЮРТИМИЗДА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....	350-354
Комилов Бобожон, Комилова Шоҳсанам ХОРАЗМДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ХАЙКАЛТАРОШЛИКНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИ.....	355-360
Ортиқов Умирилло, Ирзаева Марҳабо ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ БЕЗАК САНЪАТИ.....	361-367
Makhmudov Zavkibek Ibodulla ugli HISTORY OF MONEY CIRCULATION IN ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL EAST TURKISTAN AND CENTRAL ASIA.....	368-372
Umarov Baxtishod, Sharipova Marjona ZEBO G'ANIYEVA –ULKAN JASORAT SOHIBASI.....	372-377
Umarov Baxtishod, Hojiyeva Zarina OLOY MALIKASI – JASORAT TIMSOLI.....	378-382
Шойимова Шоира Санакуловна, Mahmudov Zavqibek Ibodulla o'g'li ЖАДИДЛАРИМИЗНИНГ ВАТАНПАРВАРЛИК, МИЛЛАТПАРВАРЛИК, ИНСОНПАРВАРЛИК ЙЎЛИДАГИ ҲАРАКАТИНИНГ АСЛ МОҲИЯТИ.....	382-388
Фарход Хурсанов, Юсуф Эргашев МЕЪМОРЧИЛИК ОБИДАЛАРИДА МУХРЛАНГАН ТАРИХ.....	388-392
Ne'matov Mirshod Dilshod o'g'li PARVON JANGI.....	393-397
Ў.Р. Сотимов, Д.К.Бабожонов ХОРАЗМ ТАБОБАТ ТАРИХИ МУЗЕЙИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ТАРИХИ.....	398-402
Boltayev Bahriiddin Erkin o'g'li SHARQIY BUXORO AMIRLIGIDA SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI.....	402-405
Mamatraimov Komil Mamatmurod o'g'li O'ZBEKISTON VA XITOIY: BUYUK IPAK YO'LI BILAN BOG'LANGAN MUSHTARAK MADANIYATLAR.....	406-410

OLOY MALIKASI – JASORAT TIMSOLI

Umarov Baxtishod

BuxDU, Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi

Hojiyeva Zarina

BuxDU, Tarix va madaniy meros fakulteti,
Tarix ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oloy malikasi nomini olgan mashhur qahramon ayol, milliy-ozodlik harakatlarinig yirik namoyondasi Qurbonjon dodxoh, uning hayot yo'li haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qurbonjon dodxoh, milliy-ozodlik harakatlari, O'sh, qo'zg'olon

Tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar, halollik, poklik, ornomus, mardlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat aynan ayollar orqali shakllanib, avloddan avlodga o'tib kelayotganligini guvohiga aylanamiz. Dunyo tarixida o'z nomini qoldira olgan mashhur ayollar haqida so'z borganda o'z-o'zidan To'maris, Kleopatra, Janna d'Ark, Xafsa sulton, Nodirabegimlar ko'z oldimizda gavdalanadi.

“Oloy malikasi” nomi ila tarixda o'chmas iz qoldirgan Qurbonjon dodxoh ham shular qatoridadir.

Qurbonjon Mamat qizi 1811-yilda O'sh shahridagi Modi qishlog'ida cho'pon oilasida dunyoga kelgan²³⁹. Mustaqil fikrli, metin irodali, go'zal, oqila, tadbirkor bo'lib yetishdi. Aynan shu xislatlari bilan boshqa qizlardan farq qilar edi. Qurbonjonning otanasi 18 yoshga to'lganda uni o'zidan yoshi uch baravar katta kishiga turmushga bermoqchi bo'lishadi, biroq u nikoh-to'y an'analarini buzib, kuyovning uyidan qochib, otasi Mamatboyning uyiga qaytib keladi²⁴⁰.

²³⁹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида, Т.: “Шарк”, 2000, - В.175.

²⁴⁰ Кулбубу Бектурганова. «Кыргызстандын Асыл Кыздары». Бишкек, 2006. –С.51

1832-yilda Qurbonjon dodxoh Andijon hokimi Olimbek nazariga tushadi va u Qurbonjonni o'z nikohiga oladi. Ular deyarli 30 yil birga Andijonni idora etishadi va bu davrda Andijon har tomonlama o'sishga erishadi.

1833-yilda Olimbek uni Qo'qon saroyiga olib kelib malika Nodirabegim bilan tanishtiradi. Saroyda unga katta obro' e'tibor ko'rsatiladi, Nodirabegim Uvaysiyalar ta'sirida dunyoqarashi yanada teranlashadi. Qurbonjon Mamat qizi Olimbek singari ot choptirish, o'q otish, qiliqbozlik ilmlarini mukammal egallagan, Andijonni idora etishda turmush o'rtog'iga ko'makdosh bo'lgan.

1863 Olimbek vafotidan so'ng 5 o'g'li va 2 qizi bilan qolgan Qurbonjon turmush o'rtog'ining o'rniga Andijon hokimi bo'ladi. Ammo saroydagi fitnalar tufayli ona yurti Modi qishlog'iga qaytib, "Oloy malikasi" nomi bilan dovrug' chiqaradi. Yettisuv, hatto, Xitoy chegarasidan ham qirg'izlar kelib uning maslahatini olishadi.

Buxoro amiri Muzaffar Qurbonjon dodxoh aqliga, dilbarligiga qoyil qolib unga hurmat bilan qaragan. Qurbonjondagi sarkardadek mardlik, dadillikni, siyosatchiga xos ehtiyotkorlikni u bilan O'shda uchrashganida tan olgan edi. Oloy malikasini o'ziga ittifoqchi kilishga uringan. Amir Muzaffar Qurbonjonga qarata : " - Biz sizga dodxoh unvonini tuhfa eturmiz, inshoolloh, sizdek jasur musulima muzaffar islom bayrog'ini dadil ko'taradi " degan²⁴¹.

Qo'qon taxtini egallagan Xudoyorxon butun Oloy vodiysiga Qurbonjon dodxoh-hokim qilib, tayinlanganligi haqida farmonni e'lon qiladi. 1865 yilda Buxoro amiri bilan Qo'qon xoni tarixida birinchi marta ayol kishiga sarkarda unvoni beriladi²⁴². Katta o'g'li Abdullabek esa O'sh hokimi qilib tayinlangan. Qurbonjon dodxoh bilan Qashqardagi Yettishahar uyg'ur davlati xukmdori Yoqubbek o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilgan. Qo'qonda xon zulmi va chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi ko'tarilgan Po'latxon qo'zg'olonida o'zbek va qirg'iz vatanparvarlarining yo'l boshchisi sifatida Qurbonjon

²⁴¹ *Tamm E. E. The Horse That Leaps Through Clouds: A Tale of Espionage, the Silk Road and the Rise of Modern China.* — Vancouver: Douglas & McIntyre, 2010. — P. 88. — ISBN 978-1-55365-269-4

²⁴² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида, Т.: "Шарк", 2000, - В.177.

dodxoh va uning o‘g‘illari ishtirok etadi. Qurbonjon dodxoh va uning o‘g‘li Abdullabek qo‘zg‘olonchilar tarafida turib jasorat ko‘rsatadi²⁴³.

Bu haqida fon Kaufman shunday yozadi : “Ruslar hali O‘rta Osiyoda hech qachon uzoq va qattiq qarshilikka duch kelmagan. Biz birinchi marta matonatli jangchilar bilan to‘qnashdik”. Mashhur general Skobelev Qurbonjon dodxoh bilan muzokara olib borishga majbur bo‘ladi. Muzokara yakunida Skobelev Qurbonjon dodxohga zarbof to‘n yopadi. Rus qo‘mondonligi uni general sifatida tan oladi²⁴⁴.

“Oloy malikasi – Qurbonjon dodxoh 1865 yildan to 1880 yilgacha Pomirda bir sarkarda sifatida halqni o‘z atrofida to‘plab, qo‘lida yalang qilich bilan fon Kaufmanga qarshi kurashdi. U shu darajada jasoratli bir xotin ediki, o‘g‘li Qamchibek Kaufman tomonidan asir olinib dorga osilayotganda dor ostiga kelib o‘g‘liga:

-Xayr, o‘g‘lim, ota-bobolaring ham dushman qo‘lida halok bo‘ldi, shahid o‘lmoq bizga meros. Senga bergan sutim oq bo‘lsin ! – deya olgan va otining jilovini ters burib keta olgan ayoldir.”²⁴⁵

O‘zbek va qizg‘iz yigitlarining jangavorligiga qoyil qolgan rus zobiti o‘lkashunos K.Abaza shunday yozgan edi: “Biz, deyishadi qirg‘izlar, -Chingizxon bilan dunyoning yarmini egallaganlar avlodimiz. Bizlarga past nazarda bo‘lmanglar. Chingizxon qonunlari va odatlari bizda amalda. Xullas, biz o‘zbeklarmiz. Bundan ortiq nima kerak?”²⁴⁶

Qurbonjon dodxohning 1898-yilgi qo‘zg‘olonda ham faol qatnashganlar. Rus amaldorlari esa doimo Oloy malikasidan xayiqishgan. Oloy malikasining dovrug‘i hatto Sankt-Peterburgdagi imperator saroyigacha yetib borgan. 1901-yilda Rossiya imperiyasi harbiy vaziri general Kuropatkin O‘shga kelib, Qurbonjonga imperatorning sovg‘asini

²⁴³ Хамид Зиёйев. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т. 1998.

²⁴⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида, Т.: “Шарк”, 2000, - В.178.

²⁴⁵ Хамид Зиёйев. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Т. 1998.

²⁴⁶ Абаза К. К. Завоевание Туркестана : рассказы из военной истории, очерки природы, быта и нравов туземцев в общедоступном изложении. - СПб., 1902.

shaxsan topshirgan. Qurbonjon dodxoh 31 nevara, 57 chevара va 6 evara ko'rib, 1907-yilda O'shda vafot etadi²⁴⁷.

Qurbonjon dodxoh haqida Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida ko'plab qo'shiqlar va rivoyatlar mavjud. Farg'ona va O'shda ko'chalar maktablar uning nomi bilan nomlanadi. Uning tarix zarvaraqlarida oltin harflar bilan bitilgan jasoratli hayoti fahru iftixor bilan o'qiladi.

Tarixda shunday mag'rur, el-yurti, farzandlari uchun qalqon bo'lgan jasoratli ayollarning siymosi aks etadi. Bir ayolda ham sarkarda, ham siyosatchi, ham vatan uchun mardonavor xizmat qila oladigan alpomishlar tarbiyachisi, bir so'z bilan aytganda, ma'rifatparvarlik va qahramonlik xislatlari uyg'unlashganini qo'rishimiz mumkin. Tarixda shunday oqila ajdodlarimiz o'tgan ekan, demak, hozirda ham bizning tomirlarimizda ularning jasorati jo'sh urib turibdi. Shu o'rinda ushbu hikmatli so'zni yodga olish joiz: "Erkakning mangulik o'lchovi mingta Davlat, shuhrat, unvon, mansab. Ayolning o'lchovi esa bitta, u xam bo'lsa farzanddir".

Ayol jamiyatning yarmi deyishadi. Yoq, u jamiyatning xammasi. U jamiyatning yarmi bo'lib qolgan yarmini tarbiyalaydi. Ayolning diniy, vataniy va ijtimoiy ahamiyati naqadar buyuk. U rafiq, singil va qizdir. U murabbiya, ziyokor va ezgulik kuychisidir. Ularni hayotga tarbiyalashni eplay olsak, umumiy uyimiz binosiga hissa qo'sholgan bo'lamiz. Quyidagi satrlarni aytgan Ahmad Shavqiyga Allohning rahmati bo'lsin: "Ona madrasadir. Agar uni munosib tarbiyalay olsang, qoni toza xalqni tarbiyalaysan!".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида, Т.: "Шарк", 2000.
2. Хамид Зиёев. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т. 1998.

²⁴⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида, Т.: "Шарк", 2000, - В.178.

3. Кулбубу Бектурганова. «Кыргызстандын Асыл Кыздары». Бишкек, 2006.
4. Абаза К. К. Завоевание Туркестана : рассказы из военной истории, очерки природы, быта и нравов туземцев в общедоступном изложении. - СПб., 1902.
5. *Tamm E. E.* The Horse That Leaps Through Clouds: A Tale of Espionage, the Silk Road and the Rise of Modern China. — Vancouver: Douglas & McIntyre, 2010.

**ЖАДИДЛАРИМИЗНИНГ ВАТАНПАРВАРЛИК, МИЛЛАТПАРВАРЛИК,
ИНСОНПАРВАРЛИК ЙЎЛИДАГИ ҲАРАКАТИНИНГ
АСЛ МОҲИЯТИ**

Шойимова Шоира Санакуловна

Тошкент вилояти Юқоро Чирчиқ тумани
34-умумий ўрта таълим мактаби директори,
олий тоифали филолог

Mahmudov Zavqibek Ibodulla o'g'li

O'z R F A Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Аннотация: Ушбу мақолада марифатпарвар жадидчилик ҳаракати, унинг асл моҳияти ва ғоялари, шунингдек ҳаракатнинг оқибатлари билан бир қаторда кейинги даврда жадидчилик ҳаракатининг адабиётларда ёритилиши баён етилган.